

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 739 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISK LARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIVAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLIVALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
DEHQON XO'JALIKLARIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA UNING BAHOLASH USULLARI.....	553
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY NATIJADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	557
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING ORTIB BORISHI JAHON MIQYOSIDA JORIY ETILAYOTGAN BUSINESS READY REYTINGIDAGI BAHOLASH NATIJALARIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA.....	562
Platov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.....	570
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHDA SANOAT CHIQINDILARNI FOYDALANISHNING DUNYO VA O'ZBEKISTON MIQYOSIDAGI HOLATI	574
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
KORXONALAR ISHLAB CHIQRISH POTENSIALINING XUSUSIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	578
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	583
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE	588
Jalqasbayev Sultanbek Tayrbek uli	
KREATIV TURIZMDA YANGI TAJRIBALAR YARATISH: IJODIY KLASSTERLAR, MAHALLIY HUNARMANDCHILIK VA IMMERSIV TEXNOLOGIYALAR ROLI	593
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	599
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY MAHSULOTLAR	605
Nazarova Umida Mamadali qizi	
CREDIT RISK MANAGEMENT AND PROFITABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN AN EMERGING MARKET: THE CASE OF UZBEKISTAN	609
Ruzmamat Khudayberganov Shokirjon ugli, Sobirov Yuldoshboy Ruzimboevich, Nodirbek Fayzullaev Baxtiyor Ugli	
PAXTA XOMASHYOSIDAGI IFLOSLIKLARNI TOZALASHDA UNUMDORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OPTIMAL PARAMETRLARNI ANIQLOVCHI MATEMATIK MODEL.....	616
Karimov Abdusamat Ismonovich, Imomnazarova Nurjaxon	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО И ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	621
Муродбек Болтабоев	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	626
Valiev Umid Gulamovich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	631
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
HR MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	635
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	641
Musayeva Shoirazimovna	
ЭМПИРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЗРЕЛОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА И ЦИФРОВИЗАЦИИ В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ УЗБЕКИСТАНА	646
Джуманиязова Сабина Михайловна	
MAMLAKATIMIZDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: ISTIQBOLLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	654
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
SYNTHESIS OF FLAME-RESISTANT NANOCOMPOSITE COATINGS, THEIR THERMO-MECHANICAL PROPERTIES, AND PRACTICAL APPLICATION IN THE EVALUATION OF HEAT RESISTANCE	658
Tosheva Dilfuza Farxodovna, Siddikov Ikrom Iminjonovich, Rakhimov Firuz Fazlidinovich	
TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	663
Xusanov Durbek Nishanovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННОЙ ТОНКОСТЕННОЙ КОНСТРУКЦИИ С ГРУНТОВЫМ МАССИВОМ В УСЛОВИЯХ ПОЛЗУЧЕСТИ	667
Уринов Адхамджан Акбарович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	673
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
BOLALAR KIYIMI TEXNOLOGIYASIDA XAVFSIZLIK TALABLARI	679
Ergasheva Rashida Abdug'anievna	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI	683
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
YANGI KELAJAK UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QAMRAB OLISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	689
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	693
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORI VA BANDLIKNING TRANSFORMATSIYASI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	697
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
К ВОПРОСУ РАСЧЕТА ПАРАМЕТРОВ КРОМОК ПРИ ВЫСОКОЧАСТОТНОЙ СВАРКИ ТРУБНОЙ ЗАГОТОВКИ ИЗ ФЕРРОМАГНИТНОГО МАТЕРИАЛА	704
Заиркулов Элёр Ёқубжон ўғли	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISHGA UMUMIY YONDASHUVLAR	708
Saidova Kamola Xoshimovna	



ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗАТРАТАМИ НА ПРОИЗВОДСТВО ПРОДУКЦИИ	713
Минутдинова Лилия Тагировна	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTSIONAL VA TARKIBIY OMILLARI EMPIRIK TAHLILI	719
Raximov To'xtabek Jumaboyevich	
BOZOR IQTISODIYOTIDA ISH HAQI, FOYDA, FOIZ VA RENTA DAROMADLARI TAHLILI	724
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MARKETING VA LOGISTIKA FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	728
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
ELEKTRON TIJORATDA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	733
Baymuradov Shoxrux Mahmudovich	



ELEKTRON TIJORATDA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Baymuradov Shoxrux Mahmudovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Biznes boshqaruvi kafedrası dotsenti v.b. PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron tijoratda Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida raqobat ustunligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan marketing, dinamik narx belgilash va logistika jarayonlarini optimallashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri asoslab beriladi. Natijalar Big Data va AI integratsiyasi elektron tijorat subyektlarining barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim strategik omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, Big Data, sun'iy intellekt, raqobat ustunligi, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the mechanisms for enhancing competitive advantage in e-commerce based on Big Data and artificial intelligence technologies. The study substantiates the impact of data-driven management, AI-based personalization, dynamic pricing, and logistics optimization on economic efficiency. The findings demonstrate that the integration of Big Data and AI is a key strategic factor in ensuring sustainable competitiveness of e-commerce enterprises.

Keywords: e-commerce, Big Data, artificial intelligence, competitive advantage, digital economy.

Аннотация. В статье анализируются механизмы повышения конкурентных преимуществ электронной коммерции на основе технологий Big Data и искусственного интеллекта. Обосновывается влияние управления на основе данных, персонализированного маркетинга, динамического ценообразования и оптимизации логистики на экономическую эффективность. Результаты показывают, что интеграция Big Data и ИИ является ключевым стратегическим фактором устойчивой конкурентоспособности электронных торговых платформ.

Ключевые слова: электронная коммерция, Big Data, искусственный интеллект, конкурентные преимущества, цифровая экономика.

KIRISH

Raqamli platformalar faoliyatida hosil bo'layotgan ulkan hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) hamda ularni qayta ishlash imkonini beruvchi sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari elektron tijorat subyektlarining strategik resursiga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Big Data va AI texnologiyalari yordamida iste'molchi xulqini chuqur tahlil qilish, talabni bashoratlash, narxlarni dinamik boshqarish va logistika jarayonlarini optimallashtirish orqali kompaniyalar bozorda sezilarli raqobat ustunligiga erishmoqda. Shu sababli, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv elektron tijoratning an'anaviy raqobat omillarini tubdan o'zgartirib, yangi iqtisodiy paradigma shakllanishiga olib kelmoqda.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda Big Data va sun'iy intellekt elektron tijoratda innovatsion qiymat yaratishning asosiy drayverlari sifatida talqin etilmoqda. AI asosidagi tavsiya tizimlari, shaxsiylashtirilgan marketing, avtomatlashtirilgan mijozlarga xizmat ko'rsatish va firibgarlikni aniqlash mexanizmlari nafaqat operatsion samaradorlikni oshirmoqda, balki iste'molchi qoniqishi va sodiqligini mustahkamlab, uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, global bozorlarda Big Data va AI'dan samarali foydalana olmagan elektron tijorat subyektlari tezda raqobatdan siqib chiqarilayotgani kuzatilmoqda. Bu holat ushbu texnologiyalarning elektron tijoratdagi strategik ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida elektron tijoratning rivojlanishi raqamli iqtisodiyotga o'tish siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatda raqamli to'lovlar, onlayn savdo platformalari va elektron xizmatlar jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Elektron tijorat subyektlarining aksariyati ma'lumotlardan asosan operatsion maqsadlarda foydalanib, ularni strategik qarorlar qabul qilish va raqobat ustunligini shakllantirish vositasi sifatida to'liq ishga solmayapti. Natijada, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi raqobat asosan narx va assortiment omillari bilan cheklanib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sharoitida Big Data va sun'iy intellekt asosida elektron tijoratning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi. Iste'molchi ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish, talabni prognozlash va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni joriy etish orqali mahalliy elektron tijorat platformalarining samaradorligi va bozor ustunligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Mazkur mavzuni ilmiy asosda o'rganish elektron tijorat subyektlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik qarorlarni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotlarda AI va Big Data integratsiyasi raqobat ustunligini shakllantirishda nafaqat texnologik vosita, balki strategik resurs ekanligi qayd etiladi. Bu texnologiyalar elektron tijorat biznesining innovatsion faoliyatida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va bozordagi o'z o'rini mustahkamlash uchun zarur mexanizmlar sifatida ko'riladi. Natijada, Big Data va AI birgalikda ishlatilganda elektron tijorat kompaniyalariga strategik afzallik beruvchi barqaror raqobat ustunligini yaratadi.

Elektron tijorat sohasida Big Data tahlili raqobatbardoshlikni oshirishda muhim strategik vositadir. Big Data analytics bozordagi tendensiyalar, mijoz xatti-harakati va xarid parametrlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi, bu esa kompaniyalarga qarorlar qabul qilishda real vaqtli ma'lumotlar asosida harakat qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Big Data yondashuvi raqamli ma'lumotlar kattaligini boshqarish va sotuv ma'lumotlarini bashoratlash orqali e-commerce platformalarda mahsulot tavsiyalari va narx strategiyalarini optimallashtirishga xizmat qiladi, bu esa kompaniyalarga yuqori samaradorlik va raqobat ustunligini beradi[3].

Shuningdek, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari elektron tijorat jarayonlarida avtomatlashtirilgan tavsiya tizimlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish va logistika optimallashtirish kabi operatsion jarayonlarda keng qo'llanilmoqda. AI algoritmlari Big Data bilan birgalikda mijozlarga shaxsiylashtirilgan tarkib va mahsulot tavsiyalarini taqdim etadi, bu esa xarid tajribasini oshirib, sodiqlik va qayta xarid qilish imkoniyatini kuchaytiradi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, AI-integratsiyalangan operatsion amaliyotlar nafaqat xizmat sifatini yaxshilaydi, balki kompaniyaning samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi[2].

Big Data va AI texnologiyalarining birgalikdagi foydasi elektron tijorat kompaniyalariga ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va predictive analytics orqali bozor tendensiyalarini oldindan bashoratlash imkonini beradi. Bu yondashuv global bozorda tezkor o'zgarishlarga moslashish va raqobat kuchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq anglash, marketing strategiyalarini personalizatsiya qilish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali mijoz qoniqishi va sodiqligini oshiradi[5].

O.A. Chernova kabi rus tadqiqotchilar tomonidan kichik va o'rta biznesda Big Data analitikasi imkoniyatlari va ularning raqobatbardoshlikka ta'siri masalalari tahlil qilingan. Ularning ishlari Big Data texnologiyalarining raqamli raqobatbardoshlikni oshirishdagi rollarini aniqlash bilan birga, ushbu texnologiyalarga kirishdagi to'sqinliklar hamda Sankt-Peterburg va Moskva biznes muhitida yuzaga keladigan xususiyatlarni ko'rsatadi[9].

Rus olimi Popov tomonidan olib borilgan tadqiqotda AI va Big Data texnologiyalarining ichki iqtisodiyotdagi tatbiqi hamda ularni joriy etishning asosiy drayverlari (masalan ticarat, ritel, davlat boshqaruvi) ko'rib chiqilgan. Muallif xulosalariga ko'ra, AI texnologiyalarini strategik joriy etish raqamli transformatsiya va raqobat strategiyalarini samarali shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi[10].

Elektron tijoratning rivojlanishi raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalarga asoslangan o'sish va bozor o'zgarishi kontekstida keng o'rganilgan. Elektron tijorat bo'yicha dastlabki tadqiqotlar asosan uning texnologik asoslari va tranzaksiyalar samaradorligiga qaratilgan bo'lib, axborot assimetriyasining pasayishi, tranzaksiya xarajatlarning pasayishi va bozor qamrovining kengayishiga urg'u berilgan. Vaqt o'tishi bilan adabiyotlar elektron tijratni nafaqat texnologiya, balki boshqaruv, institutsional va tartibga soluvchi omillar ta'sirida shakllangan ko'p o'lchovli hodisa sifatida yanada murakkabroq tushunishga qarab rivojlandi[11].

Big Data texnologiyalari ma'lumotlarni to'plash va boshqarish imkonini bersa, Sun'iy intellekt (AI) ularni tahlil qilish va qaror qabul qilishni avtomatlashtirish imkonini beradi. Mazkur texnologiyalar birgalikda ishlaganda inson omilini kamaytiradi, tezkor va aniq natijalarga erishish imkonini yaratadi. Shu bois, big datani sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish zamonaviy raqamli iqtisodiyotning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda[12].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot elektron tijoratda Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining raqobat ustunligini shakllantirishdagi rolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kvantitativ tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot dizayni tavsifiy–analitik va empirik xarakterga ega bo'lib, raqamli iqtisodiyot va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv konsepsiyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqotda Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi mustaqil o'zgaruvchilar, elektron tijorat subyektlarining raqobat ustunligi esa bog'liq (endogen) o'zgaruvchi sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida elektron tijoratda Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining raqobat ustunligini shakllantirishdagi roli tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlil mantiqi xalqaro adabiyotlarda keng qo'llaniladigan data-driven competitiveness yondashuviga asoslanib, Big Data infratuzilmasi va AI algoritmlari mustaqil omillar, raqobatbardoshlik esa natijaviy ko'rsatkich sifatida qaraldi. Raqobat ustunligi operatsion samaradorlik, mijoz sodiqligi, qayta xarid darajasi va bozor ulushi barqarorligi orqali talqin qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Big Data asosida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish elektron tijorat subyektlariga iste'molchi xulqini chuqurroq anglash imkonini beradi. Xarid tarixlari, qidiruv odatlari, geolokatsiya va vaqt omillarini kompleks tahlil qilish orqali talabni prognozlash aniqligi oshadi, bu esa assortimentni optimallashtirish va zaxiralarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribaga mos ravishda, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qiluvchi platformalarda operatsion xarajatlarning kamayishi va yetkazib berish samaradorligining oshishi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval. Big Data va sun'iy intellekt asosida raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlari

№	Texnologik omil	Amalga oshirish mexanizmi	Iqtisodiy natija (empirik talqin)	Raqobat ustunligiga ta'siri
1	Big Data tahlili	Xarid tarixi, qidiruvlar va xulqiy ma'lumotlarni kompleks tahlil qilish	Talab prognozi aniqligi oshadi, zaxiralalar optimallashtiriladi	Xarajatlar kamayadi, operatsion samaradorlik oshadi
2	AI tavsiya tizimlari	Shaxsiylashtirilgan mahsulot va kontent takliflari	Konversiya va o'rtacha chek hajmi oshadi	Mijoz sodiqligi va qayta xarid kuchayadi
3	Dinamik narx belgilash (AI)	Real vaqti talab va raqobatchi narxlarini tahlil qilish	Daromadlar barqarorlashadi, narx moslashuvchanligi oshadi	Bozorda tezkor moslashuv va ustunlik
4	AI asosidagi logistika	Yetkazib berish marshrutlari va muddatlarini optimallashtirish	Yetkazib berish tezligi va aniqligi oshadi	Xizmat sifati orqali raqobat ustunligi
5	Fraud detection (AI)	Firibgarlikni avtomatik aniqlash va oldini olish	Moliyaviy yo'qotishlar va risklar kamayadi	Iste'molchi ishonchi mustahkamlanadi
6	Big Data + AI integratsiyasi	Real vaqti analitika va strategik qarorlar	Qaror qabul qilish sifati va tezligi oshadi	Barqaror va uzoq muddatli raqobatbardoshlik

Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi raqobat ustunligini shakllantirishda yanada chuqurroq ta'sir mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda. AI asosidagi tavsiya tizimlari va shaxsiylashtirilgan marketing vositalari iste'molchilarning individual ehtiyojlariga mos takliflar yaratib, xarid ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, AI yordamida avtomatlashtirilgan tavsiyalar va dinamik narx belgilash mexanizmlari qisqa muddatda savdo hajmini oshirsa, uzoq muddatda mijoz sodiqligini mustahkamlash orqali barqaror raqobatbardoshlikka olib keladi.

Tahlil jarayonida Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'zaro integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Big Data — xom axborot manbai bo'lsa, AI ushbu ma'lumotlarni iqtisodiy qiymatga aylantiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu integratsiya orqali elektron tijorat subyektlari real vaqt rejimida bozor tendensiyalarini kuzatish, iste'molchi ehtiyojlaridagi o'zgarishlarga tezkor moslashish va raqobatchilardan oldinda strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu holat raqobat ustunligining dinamik va moslashuvchan xarakter kasb etayotganini ko'rsatadi.

Mahalliy sharoit nuqtayi nazaridan, tahlil natijalari O'zbekistonda Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish raqobat ustunligini oshirish uchun hali to'liq ishga solinmagan salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Elektron tijorat subyektlarining aksariyatida ma'lumotlar tahlili asosan tavsifiy darajada qolib, prognozlash va optimallashtirish imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmagan. Natijada, raqobat ustunligi ko'proq

narx va marketing aksiyalariga tayanmoqda, bu esa uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda cheklovlar keltirib chiqarmoqda.

Tahlil natijalari Big Data va sun'iy intellekt elektron tijoratda dinamik, moslashuvchan va uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishning asosiy manbai ekanini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalarni strategik boshqaruv darajasida integratsiyalash elektron tijorat subyektlariga nafaqat ichki samaradorlikni oshirish, balki bozor muhitidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish va iste'molchi bilan barqaror munosabatlar o'rnatish imkonini beradi. Bu esa raqobatbardoshlikni zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari elektron tijoratda raqobat ustunligini shakllantirish jarayoni tobora ko'proq ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv va sun'iy intellekt texnologiyalarining samarali qo'llanilishiga bog'liq ekanini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Big Data elektron tijorat subyektlari uchun strategik resurs sifatida xizmat qilib, iste'molchi xulqini chuqur tahlil qilish, talabni bashoratlash va operatsion jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt esa ushbu ma'lumotlarni iqtisodiy qiymatga aylantirib, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, dinamik narx belgilash va risklarni boshqarish orqali barqaror raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Big Data va sun'iy intellektning integratsiyalashgan qo'llanilishi elektron tijoratda qisqa muddatli savdo natijalarini yaxshilash bilan cheklanmay, uzoq muddatli strategik ustunlikni shakllantiradi. AI asosidagi tavsiya tizimlari va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlari iste'molchi qoniqishi va sodiqligini oshiradi, bu esa qayta xarid darajasi va ijobiy "word-of-mouth" samaralarini kuchaytiradi. Natijada, elektron tijorat platformalarining bozor barqarorligi va raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Mahalliy sharoitda, xususan O'zbekiston elektron tijorat bozorida Big Data va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha salohiyat yuqori bo'lsa-da, ushbu texnologiyalar hali to'liq strategik darajada joriy etilmagan. Ko'plab platformalarda ma'lumotlar asosan tavsifiy tahlil uchun qo'llanilib, prognozlash va optimallashtirish imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmayapti. Bu esa raqobat ustunligini shakllantirishda narxga asoslangan qisqa muddatli yondashuvlarning ustun bo'lib qolishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

— elektron tijorat subyektlarida Big Data infratuzilmasini rivojlantirish va ma'lumotlarni strategik boshqaruv darajasiga olib chiqish;

— sun'iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari, talabni prognozlash va dinamik narx belgilash mexanizmlarini keng joriy etish;

— ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy axborotni himoyalash bo'yicha institutsional mexanizmlarni kuchaytirish orqali iste'molchi ishonchini mustahkamlash;

— elektron tijorat subyektlari raqobatbardoshligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ma'lumotlardan foydalanish samaradorligi va AI texnologiyalarini joriy etish darajasini ham hisobga olish;

— davlat siyosati doirasida Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarini elektron tijoratda rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish.

Mazkur tadqiqot Big Data va sun'iy intellekt elektron tijoratda raqobat ustunligini ta'minlovchi muhim strategik omillar ekanini ilmiy asosda isbotlaydi hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shahriar Akter, Samuel Fosso Wamba, Big data analytics in E-commerce: a systematic review and agenda for future research, *Electronic Markets*, Vol. 26, No. 2, 2016. <https://doi.org/10.1007/s12525-016-0219-0>
2. Panagiota Papastamoulou, Nikos Antonopoulos, Artificial Intelligence in E-Commerce: A Comparative Analysis of Best Practices Across Leading Platforms, Systems, Vol. 13, No. 9, 2025. <https://doi.org/10.3390/systems13090746>
3. S. Rajkumar, J. Mukundh, Jenila Livingston, Impact of Big Data Analytics on E-Commerce for Business Application: A Review, *International Journal of Advanced Computer Science and Applications (IJACSA)*, Vol. 12, No. 7, 2024. <https://doi.org/10.5220/0012881100004519>
4. Lai Wang, Thillai Raja A.L. Pertheban, Tianqi Li, Lei Zhao, Application of Business Intelligence Based on Big Data in E-Commerce Data Evaluation, *Heliyon*, 2024, e38768. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e38768>
5. Asad Ali, Edward Harrison, AI and Big Data Analytics: Driving Innovation in E-Commerce and Customer Experience, *ResearchGate* (preprint), 2024.
6. Yufei Li, Ruifeng Zheng, Yanzhen Hao, Jiawei He, Xuyang Zhang, The Impact of Artificial Intelligence on E-commerce Consumer Behavior: A Comparative Analysis, in *Proceedings of MIED-25 (International Conference)*, 2025. https://doi.org/10.2991/978-94-6463-835-6_8
7. Qianye Wu, Chengxuan Xia, Sixuan Tian, AI-Driven Sentiment Analytics: Unlocking Business Value in the E-Commerce Landscape, *arXiv preprint*, 2025.



8. Anthonette Adanyin, Ethical AI in Retail: Consumer Privacy and Fairness, arXiv preprint, 2024.
9. O.A. Chernova, I.V. Mitrofanova, M.V. Pleshakova, V.V. Batmanova,. Use of Big Data Analytics for Small and Medium-Sized Businesses in Russia, Serbian Journal of Management, Vol.18 No.1, 2023.
10. В.В. Попов, «Применение искусственного интеллекта и больших данных в практике российских организаций», Экономика и управление, № 6, 2024. <https://cyberleninka.ru/article/n/primeneniye-iskusstvennogo-intellekta-i-bolshih-dannyh-v-praktike-rossiyskih-organizatsiy>
11. Zukhra Iskandarbekovna Madieva, Strategies for Increasing the Effectiveness of E-Commerce Development Management in Uzbekistan, International Scientific-Electronic Journal "Pioneering Studies and Theories", Vol. 1, No. 7, 2025. <https://pstjournal.uz/index.php/pst/article/view/75>
12. Shodmonov Mirjahon Normurod o'g'li, Sun'iy Intellekt yordamida Big Data tahlili, Adju University, Toshkent, 2025. <https://www.devos.uz/files/2386.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100